

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lim massasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxonada faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	



MOLIYAVIY HISOBOTNI TRANSFORMATSIYA QILISH

Sheraliyev Xayrulla Karimovich

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti mustaqil izlanuvchisi

UDK: 657.1

Elektron pochta: hayullo5@mail.ru

ORCID: 0009-0003-2087-8873

Annotatsiya: Milliy buxgalteriya standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) talablari asosida transformatsiya qilish jarayoni kompaniyalarning global moliya bozorlariga integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada MHXSga muvofiq hisobot tayyorlashda tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlarining roli, milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: MHXS, transformatsiya, tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlari, moliyaviy hisobotlar.

Abstract: The transformation of financial statements from national accounting standards to International Financial Reporting Standards (IFRS) plays a crucial role in enabling companies to access global financial markets. This article analyzes the differences between national and international standards and examines the function of adjusting journal entries in preparing IFRS-compliant reports.

Keywords: IFRS, transformation, adjusting journal entries, financial statements.

Аннотация: Процесс трансформации финансовой отчетности, составленной в соответствии с национальными стандартами, в формат Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) играет ключевую роль в интеграции компаний в глобальные финансовые рынки. В статье рассматриваются различия между национальными и международными стандартами, а также значение корректирующих бухгалтерских записей при подготовке отчетности по МСФО.

Ключевые слова: МСФО, трансформация, корректирующие бухгалтерские записи, финансовая отчетность.

KIRISH

Milliy buxgalteriya tizimida tayyorlangan buxgalteriya hisobotlarini xalqaro formatga o'tkazish juda murakkab jarayon bo'lib, buxgalteriya xodimlaridan yuqori professionallikni talab qiladi. Hisobotni o'zgartirishni amalga oshirish uchun aktivlar, passivlar va kapitalni hisobga olish sohasidagi xalqaro standartlarni yaxshi bilish lozim. O'zbekistonda moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga moslashtirish uchun buxgalteriya hisobi ma'lumotlari qayta guruhlanadi yoki buxgalteriya hisobotlari transformatsiya qilinadi. Buxgalteriya hisobotlarini transformatsiya qilish – bu kompaniya tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot elementlarini xalqaro standartlar talabi asosida qayta hisoblab, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan hisobotlarni tayyorlashdir. Moliyaviy hisobotni xalqaro formatga o'tkazish uchun keng tarqalgan usullardan biri moliyaviy hisobot transformatsiyasi usuli bo'lib, bu usul nisbatan qulayroq hisoblanadi. Shu sababli, quyida ushbu usul batafsil ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transformatsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga ko'ra, transformatsiya (lotincha transformatio – o'zgartirish, qayta tashkil etish) a) struktura, shakl va uslublarini qayta tashkil etish, faoliyatning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish; b) o'zgartirishning bir usuli bo'lib, xalqaro huquq normalarini ichki davlat huquqi normalariga qayta tashkil qilish ma'nolarini anglatadi [6].

Islomova G. moliyaviy hisobot transformatsiyasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Xullas, transformatsiya shunday taomilki, u hisobot sanasi holatiga ko'ra o'tkaziladi va u milliy hisob standartlari bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini, uning barcha elementlarini e'tirof etish, o'lchash va ochib berishning tegishli qoidalarini hisobga olgan holda MHXS formatiga o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha tuzatishlarni o'z ichiga oladi" [3].

Iqtisodchi olim S. N. Tashnazarovning fikricha: "Moliyaviy hisobot transformatsiyasi – bu hisobot sanasi holatiga ko'ra buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, tuzatishlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXS hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga o'tkazish va qayta tashkil qilish jarayonidir" [2].

Transformatsiya qoidalarini belgilaydigan maxsus MHXS mavjud emas. Biroq, MHXSGa birinchi marta o'tayotganda 1-son MHXS "MHXSlarni birinchi marta qo'llash" standarti qoidalariga amal qilish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda transformatsiyalangan moliyaviy hisobotning amaliy holatini baholash uchun yirik korxonalar hisobotlari o'rganildi hamda xalqaro standartlarga asoslangan sekundar ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida solishtirma, regression va tarkibiy tahlil usullari qo'llanilib, milliy va xalqaro hisobotlar orasidagi tafvotlar aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformatsiya jarayonida 1-sonli MHXS (IFRS) – "MHXSn birinchi marta qabul qilish" va 29-son BHXS (IAS) – "Giperinflyatsion iqtisodiyotda moliyaviy hisobot" nomli xalqaro standartlarga rioya qilish zarur. Bundan tashqari, MHXSGa o'tishda xo'jalik subyekti uslubiy va tashkiliy xarakterdagi ba'zi tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishi lozim bo'ladi. Konversiyadan farqli o'laroq, transformatsiya muntazam emas, balki davriy jarayondir. Transformatsiya jarayoni tayyorgarlik, asosiy va texnik bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Transformatsiyaga tayyorgarlik bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

MHXSGa muvofiq yangi hisob siyosatini ishlab chiqish orqali hisobot moddalarining nomuvofiqligini kamaytirish va milliy buxgalteriya hisobi bilan MHXS bo'yicha hisob qoidalarini maksimal darajada yaqinlashtirish;

1-son MHXS talablariga rioya qilish va dastlabki sinov balansini tayyorlash;

baholash valyutasi va hisobot valyutasini tanlash;

xo'jalik subyektining korporativ strukturasi tahlil qilish orqali MHXS bo'yicha konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga kiritilishi lozim bo'lgan sho'ba korxonalar va filiallarni aniqlash;

transformatsiya uchun boshlang'ich qoldiq sifatida kiritiluvchi schyotlar qoldiqlarini aniqlash;

milliy va xalqaro standartlarga muvofiq obyektlarni hisobga olishdagi farqlarni aniqlash hamda transformatsion tuzatishlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida xo'jalik subyektining barcha operatsiyalarini tahlil qilish;

MHXS asosidagi schyotlar rejasini ishlab chiqish va uni mavjud schyotlar rejasiga muvofiqlashtirish;

hisobot moddalarini qayta hisoblash uchun tuzatuvchi provodkalarini amalga oshirish imkonini beruvchi transformatsion jadvallar yaratish orqali transformatsion modelni ishlab chiqish;

milliy buxgalteriya schyotlaridan xalqaro buxgalteriya schyotlariga o'tkazish uchun schyotlarni reklassifikatsiya qilish va buxgalteriya provodkalarini tayyorlash.

Transformatsiyaning asosiy bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

MHXS va BHMS bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobot tayyorlashga yondashuvlardagi farqlarni aniqlash;

mavjud farqlar asosida tuzatish yozuvlarini tayyorlash.

Transformatsiyaning texnik bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

transformatsion yozuvlarni tayyorlash;

tuzatish operatsiyalarini rasmiylashtirish;

ishchi transformatsion jadvalni yaratish;

MHXS formatiga muvofiq hisobot shakllarini to'ldirish.

2025-yil holatiga ko'ra, moliyaviy hisobotni o'zgartirish uchun yagona algoritm mavjud emas. Har bir holatda individual yondashuv zarur bo'ladi. Bunga sabab – hisobot jarayoniga ko'plab subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi, jumladan: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, buxgalteriya hisobini tashkil etish tartibi, qo'llanilayotgan hisob siyosati, hisobot tafsilotlari, vaqt, moliyaviy va inson resurslarining mavjudligi va boshqa omillar.

Shu sababli, hozirgi paytda transformatsiyaga bir qator yondashuvlar mavjud. Hisobotni MHXSGa muvofiq qayta tuzayotgan mutaxassis har bir tashkilotning o'ziga xos hisobotini hisobga olgan holda transformatsiya metodologiyasi va bosqichlarini mustaqil belgilash huquqiga ega.

Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishda hisobotni milliy buxgalteriya tizimidan MHXSGa dastlabki o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan MHXS 1-standarti talablariga rioya qilish zarur. Standartlar o'tgan davr uchun moliyaviy hisobotlarni MHXSGa qayta hisoblash talablarini o'z ichiga oladi. Shu bois, ushbu standart shartlariga rioya etish transformatsiya usullarini qo'llash zarurligini yuzaga keltiradi.

MHXSga o'tish sanasi xo'jalik subyekting MHXSga muvofiq to'liq qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etadigan eng erta davrning boshlanishi hisoblanadi. Ushbu standart xo'jalik subyekti birinchi marta MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tayotgan hollarda qo'llaniladi. Standartning asosiy talabi shundan iboratki, MHXSga o'tishda xo'jalik subyekti MHXSga muvofiq dastlabki balansni tuzishi lozim. Bu esa MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun boshlang'ich nuqtani belgilaydi.

MHXS 1-talablariga muvofiq, xo'jalik subyekti:

MHXS talablariga muvofiq barcha aktivlar va majburiyatlarni tan olishi;

agar MHXS bunday tan olinishga yo'l qo'ymasa, balans moddalarini aktivlar yoki majburiyatlar sifatida tan olmasligi;

ilgari qo'llanilgan milliy buxgalteriya qoidalariga muvofiq tan olingan moddalarni aktivlar, majburiyatlar yoki kapital sifatida qayta tasniflashi;

barcha tan olingan aktivlar va majburiyatlarni MHXSga muvofiq baholashi lozim.

Ushbu talablarni bajarish uchun xo'jalik subyekti MHXS bo'yicha tayyorlanayotgan dastlabki balansida va MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotida hisob tuzilayotgan barcha davrlarda bir xil hisob siyosatidan foydalanishi shart.

Xo'jalik subyekting 1-son MHXS bo'yicha xalqaro standartlarga o'tish sanasidagi taxminiy hisob-kitoblari avvalgi umume'tirof etilgan buxgalteriya tamoyillariga muvofiq, ayni shu sanada tuzilgan hisob-kitoblarga muvofiq kelishi kerak. 1-son MHXSga rioya qilish uchun MHXS bo'yicha birinchi marta tayyorlangan korxonaning moliyaviy hisobot tarkibida kamida uchta davr uchun Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, ikkita davr uchun Umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot, ikkita davr uchun Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot hamda qiyosiy ma'lumotlarga asoslangan tegishli eslatmalar bo'lishi zarur.

MHXS bo'yicha xo'jalik subyekting birinchi moliyaviy hisobotida quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

hisobotda aks ettirilgan kapitalni avvalgi umume'tirof etilgan buxgalteriya tamoyillariga muvofiq kapital bilan MHXSga o'tish sanasida va korxonaning oxirgi yillik moliyaviy hisobotida taqdim etilgan davr yakunidagi holat bilan taqqoslash asoslari;

kompaniyaning eng so'nggi yillik moliyaviy hisobotining eng so'nggi davri uchun MHXS bo'yicha umumiy daromadlarni taqqoslash. Bunday yarashtirishning boshlang'ich nuqtasi shu davr uchun avvalgi umume'tirof etilgan buxgalteriya tamoyillari bo'yicha jami foyda yoki, agar kompaniya ushbu ko'rsatkichni aks ettirmagan bo'lsa, foyda yoki zarar bo'lishi kerak;

tan qiymatsizlik zararlarining yarashtirilgan holati, agar mavjud bo'lsa.

Agar korxonada MHXS bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi dastlabki hisobotida asosiy vositalar, investitsiya mulki yoki nomoddiy aktivlar uchun shartli boshlang'ich qiymat sifatida adolatli qiymat o'lchovidan foydalansa, MHXS bo'yicha birinchi marta tayyorlangan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida har bir alohida element uchun quyidagi ma'lumotlar oshkor qilinishi kerak:

adolatli qiymatlar miqdori;

avvalgi umume'tirof etilgan buxgalteriya tamoyillariga muvofiq hisobotda aks ettirilgan balans qiymatlariga kiritilgan tuzatishlar miqdori.

Moliyaviy hisobotni o'zgartirishda, shuningdek, IAS 29 – "Giperinflyatsion iqtisodiyotda moliyaviy hisobot" talablariga ham rioya etilishi lozim. Ushbu standart moliyaviy hisobotlarda, shu jumladan funksional valyutasi giperinflyatsion iqtisodiyot valyutasi bo'lgan barcha subyektlarning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'llaniladi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda MHXSni qo'llaydigan korxonalar soni ortib borayotgani tufayli, zamonaviy texnik vositalar yordamida bu jarayonni avtomatlashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, hisobotni avtomatlashtirish nafaqat uni tayyorlash vaqtini qisqartiradi, balki inson omiliga bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni kiritish bosqichidagi xatolar sonini ham sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

So'nggi yillarda MHXS bo'yicha hisobotlarni tayyorlash uchun avtomatlashtirilgan dasturlar bo'yicha talab ortdi. Biroq, MHXS hisobotlarini tayyorlash uchun bozorda hali biror keng tarqalgan dasturiy mahsulot mavjud emas. Bunga asosiy sabab — ushbu dasturlarni yaratish jarayoni muayyan texnik va metodik qiyinchiliklar, shuningdek tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Jadval muharrirlari, ma'lumotlar bazalari va alohida firmalarning murakkab dasturiy mahsulotlari yordamida MHXS hisobotlarini tayyorlashni avtomatlashtirish mumkin. Eng keng tarqalgan va arzon variant – bu jadval muharrirlari yordamida hisobotlarni o'zgartirish (masalan, MS Excel). MS Exceldagi transformatsiya modeli har bir balans moddasi va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot uchun batafsil analitik transkriptdan iborat bo'ladi. Analitik jadvallarda buxgalteriya hisobi obyektlari yoki operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar (BHMS bo'yicha ma'lumotlar va MHXS bo'yicha turli tasniflash xususiyatlari) mavjud bo'ladi. Keyinchalik formulalar va tasniflar asosida jadvaldagi "jami" miqdor qayta hisoblanadi va MHXSga muvofiqlashtiriladi. Bunday jadvallar soni



juda ko'p va hajman katta bo'ladi. Muhim jarayon – buxgalteriya obyektlarini MHXS bo'yicha to'g'ri tasniflash imkonini beruvchi batafsilroq ma'lumotlarni kiritishdir.

Ushbu vazifaning murakkabligi korxonada faoliyatining ko'lami va turlariga, shuningdek, kiritilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar hajmiga bog'liq. Analitik jadvallarni to'ldirish bo'yicha ishlar, asosan, qo'lda amalga oshiriladi. Excel shakllari ma'lumotlarni to'ldirish uchun turli bo'limlar xodimlari o'rtasida taqsimlanadi: buxgalteriya hisobi bo'limi asosiy vositalar, aksiyalar, qarzlilar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi; moliya bo'limi strategik va joriy rejalar to'g'risida ma'lumot beradi; yuridik bo'lim esa ko'chmas mulk (binolar va yer uchastkalari) bo'yicha axborot taqdim etadi. Har bir bo'lim kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish uchun ma'lum algoritmlarni o'z ichiga olgan shaklni to'ldiradi. Analitik transkriptlar to'ldirilgach, ular hisobotlarni tayyorlaydigan buxgalteriya bo'limiga yuboriladi. Bu bo'limda ma'lumotlar umumiy faylga birlashtiriladi. Olingan ma'lumotlar asosida MHXS buxgalteriya moddalarini bo'yicha birlamchi raqamlar shakllantiriladi. Analitik jadvallar tayyor bo'lgach va ulardagi ma'lumotlar qayta hisoblangach, BHMS bo'yicha hisobot qiymatlarini MHXSga o'tkazish uchun tuzatuvchi yozuvlar kiritiladi. Bunday yozuvlar aniqlikni ta'minlash maqsadida alohida schyotlarda amalga oshiriladi.

Milliy hisobotni xalqaro hisobotga yakuniy aylantirish gorizontall transformatsiya modelida amalga oshiriladi. Bu munosabatlarni ko'rish uchun bitta varaqqa joylashtirilgan balans moddalarini va moliyaviy natijalarni to'g'risidagi hisobot jadval shaklida tuziladi. Ushbu jadvalda dastlabki transformatsiya natijalari, ketma-ket barcha tuzatuvchi operatsiyalar va MHXS bo'yicha yakuniy natijani chet el valyutasiga o'tkazish bilan to'ldirish aks ettiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, MHXS hisobotini tayyorlash usulini tanlash – undan keyingi foydalanish maqsadlari, tuzish muddatlari, mutaxassislarining malakasi, vaqt va moliyaviy xarajatlarga bog'liq. MHXS hisobotini tayyorlashni avtomatlashtirish bo'yicha loyihaning samaradorligi olingan foyda va sarflangan xarajatlarni taqqoslash orqali baholanadi. Ustuvorlik har bir kompaniya uchun alohida ko'rinadi va bu masalada hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish loyihalari barcha avtomatlashtirish tashabbuslariga xos bo'lgan murakkabliklarga ega: nazoratning kuchayishi va ish hajmining oshishi tufayli xodimlarning qarshiligi, texnik xususiyatlarni ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar, qo'shimcha uskunalar xarid qilish zarurati va boshqa omillar.

Xalqaro standartlarga muvofiq hisobot tayyorlash usulidan qat'i nazar, hisobotning barcha turlari bo'yicha uni transformatsiya qilish uchun xalqaro buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq muomalalarni yoki hattoki milliy buxgalteriya hisobi muomalalarini guruhlariga o'tkazish qoidalarini ishlab chiqish zarur. Yoki yagona jadval ishlab chiqilishi kerak. Muayyan biznes muomalalariga nisbatan standartni talqin qilish, ayniqsa aniq xususiyatlarga ega sohalarida (masalan, qurilish) ko'p hollarda hattoki mutaxassislar uchun ham murakkablik tug'diradi. Bu esa loyihaga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning yirik kompaniyalari tajribasi MHXSga o'tishning iqtisodiy samaradorligini namoyish etdi. Bu ularga global muvaffaqiyat sari yo'l ochdi va butun biznesining rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga, O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi mavqei ham mustahkamlandi va islohotlar jarayonida qilingan xarajatlar o'zini to'liq oqladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz korxonalarida MHXSni keng joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda yagona buxgalteriya usullaridan foydalanish orqali kompaniyalarning ichki boshqaruv tizimini takomillashtiradi. Shu bilan birga, manfaatdor foydalanuvchilarga ishonchli va shaffof ma'lumotlarni taqdim etish orqali kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qaror. – 2020-yil 24-fevral.
2. С.Н. Ташназаров. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2016. – 290 б.
3. Исломова Г. “МҲХС билан ишлашга тайёрмисиз?” // Газета “СБХ”. – 2015. – №26. – 2-бет.
4. Каримов А.А., Ибрагимов А.К., Ризаев Н.К., Имамова Н.М. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари. Дарслик. – Т.: ТМИ, “Иқтисод-Молия”, 2020. – 392 б.
5. Умаров З.А., Ибрагимов А.К., Ризаев Н.К., Марпатов М.Д. Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 500 б.
6. “ТРАНСФОРМАЦИЯ” // dic.academic.ru/dic.nsf/dic_economic_law/16427.
7. MHXS bo'yicha Xalqaro komitet. – <http://www.iask.org/>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100